

## **"BABUR-NAMA" AS AN IMPORTANT SOURCE FOR WRITERS OF THE EAST AND WEST**

**Mohida Rustamjon qizi QODIROVA**

Doctoral student (PhD)

Tashkent State University of Uzbek Language and

Literature named after Alisher Navoi

Tashkent, Uzbekistan

## **"BOBURNOMA" SHARQ VA G'ARB ADIBLARI ASARLARI UCHUN MUHIM MANBA SIFATIDA**

**Mohida Rustamjon qizi QODIROVA**

Doktorant (PhD)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Toshkent, O'zbekiston

## **"БАБУР-НАМЕ" КАК ВАЖНЫЙ ИСТОЧНИК ДЛЯ ПИСАТЕЛЕЙ ВОСТОКА И ЗАПАДА**

**Мохида Рустамжон кизи КОДИРОВА**

Докторант (PhD)

Ташкентский государственный университет узбекского языка и

литературы имени Алишера Навои

Ташкент, Узбекистан [nazarovamohida@gmail.com](mailto:nazarovamohida@gmail.com) ORCID ID: 0009-0006-8172-9777

**For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Qodirova M.R. "Boburnoma" sharq va g'arb adiblari asarlari uchun muhim manba sifatida // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild, № 3. — B. 266–279.

<https://doi.org/10.36078/1751138692>

**Received:** April 11, 2025

**Accepted:** June 17, 2025

**Published:** June 20, 2025

Copyright © 2025 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



**Abstract.** This article presents a comparative literary analysis of the distinctive literary and historical features of *Baburnama* by Zahiriddin Muhammad Babur, as interpreted in both Eastern and Western contemporary literature. The analysis focuses on two novels inspired by *Baburnama*: *Yulduzli tunlar* (*Starry Nights*) by Pirimkul Kadirov, representing Uzbek literature, and *Raiders from the North* by Alex Rutherford, written in English. Drawing on these texts, the study examines and contrasts their plot structures, narrative techniques, character systems, and the authors' respective approaches to the historical source, along with their aesthetic principles and methods of literary representation. Special attention is given to the adaptation of *Baburnama*'s event sequence and narrative dynamics within the compositional frameworks of both novels. The portrayal of central characters — particularly Babur and his close associates — is analyzed in terms of psychological depth, personal traits, and historical agency. These elements are assessed comparatively, highlighting differing aesthetic and ideological perspectives. Ultimately, the article evaluates *Baburnama* not only as a historical document but also as a literary intertext of global significance, arguing for its role as a cultural bridge between Eastern and Western literary traditions.

**Keywords:** *Baburnama*; Zahiriddin Muhammad Babur; literary analysis; Eastern and Western literature; historical novel; intertextuality; Pirimkul Kadirov; Alex Rutherford.

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” ga xos muhim adabiy va tarixiy xususiyatlar asrning Sharq va G’arb adabiyotidagi zamonaviy talqinlari bilan qiyoslab o’rganilgan. Tadqiqot markazidan “Boburnoma” asari asosida vujudga kelgan ikki roman — o’zbek adabiyotining durdonalaridan biri — Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” hamda Aleks Rutserfordning ingliz tilida yozilgan “Shimoldan kelgan fotihlar” (“Raiders from North”) asarlari o’rin egallagan. Ushbu badiiy matnlar asosida “Boburnoma”ning syujet elementlari, adabiy strukturalari va personajlar tizimi, asar mualliflarining tarixiy manbaga yondashuvi, badiiy tafakkur usullari va obraz yaratishdagi estetik mezonlari bilan bog’liq jihatlar qiyosiy tahlil etilgan. Xususan, har ikki roman kompozitsion tuzilmasining shakllanishida “Boburnoma”dagi voqealar izchilligi va syujet dinamikasining o’zlashtirish usullariga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, asar qahramonlari — Bobur va unga yaqin shaxslarning xarakteri, ularning ichki dunyosi, tarixiy sharoitdagi qaror va harakatlari ikki roman kontekstida solishtirilib, estetik va ideologik yondashuvlar farqlari ko’rsatib berilgan. Maqolada, shu tariqa, “Boburnoma”ning nafaqat tarixiy hujjat sifatida, balki xalqaro miqyosdagi adabiy intertekst sifatida tutgan o’rni tahlil qilingan. Xulosa sifatida, ushbu asarning Sharq va G’arb adabiy makonlarini bog’lovchi universal manba ekani asoslab berilgan.

**Kalit so’zlar:** Boburnoma; Zahiriddin Muhammad Bobur; adabiy tahlil; sharq va g’arb adabiyoti; tarixiy roman; intertekstual tahlil; Pirimqul Qodirov; Aleks Rutserford.

**Аннотация.** В статье произведено сравнительное литературное исследование уникальных литературных и исторических характеристик произведения Захириддина Мухаммада Бабура «Бабура-наме» в контексте современных интерпретаций в восточной и западной литературе. В центре внимания находятся два романа, созданных на основе «Бабура-наме» — «Звёздные ночи» П. Кадырова (узбекская литература) и «Завоеватели с севера» А. Резерфорда (англоязычная литература). На основе этих художественных текстов проведён сопоставительный анализ сюжетных элементов, литературной структуры, системы персонажей, а также подходов авторов к историческому источнику, методов художественного осмысления и эстетических критериев в создании образов. Особое внимание уделено тому, как последовательность событий и динамика сюжета из «Бабура-наме» адаптированы в композиционных структурах обоих романов. Кроме того, в статье анализируются характеры главных героев — Бабура и близких к нему исторических фигур, их внутренний мир, решения и действия в условиях конкретных исторических обстоятельств в контексте двух художественных произведений. Таким образом, исследуется значение «Бабура-наме» не только как исторического документа, но и как интертекста, имеющего универсальное значение в международном литературном пространстве. В заключение обосновывается роль этого произведения как культурного моста между Востоком и Западом.

**Ключевые слова:** Бабура-наме; Захириддин Мухаммад Бабура; литературный анализ; восточная и западная литература; исторический роман; интертекстуальный анализ; Пиримкул Кадыров; Алекс Резерфорд.

## Kirish

O'zbek adabiyotini safarnoma [Ne'matova 2023] hamda xotiranoma sifatida boyitgan "Boburnoma" asari asrlar davomida nafaqat Osiyo, balki butun dunyo o'quvchilarini hayratga solib kelmoqda. Asar muallifi Zahiriddin Muhammad Bobur ushbu asarini katta bobosi Amir Temurdan namuna olib yaratgan bo'lsa-da, uning bu voqeanomasi bayon etish uslubi, badiiyati, she'riy nafosati, tarixiy ma'lumotlar va voqea-hodisalarning o'zgacha tasviri va bayoniyligi bilan o'zbek adabiyotshunosligida o'ziga xos qimmatga ega. Oradan qariyb 500 yil o'tgan bo'lsa-da, o'zbek va jahon olimlarining "Boburnoma"ga bo'lgan qiziqishi also kamaygani yo'q. Dunyoning bir necha tillarida ilmiy maqolalar, ilmiy asarlar, dissertatsiya, monografiyalar, hattoki badiiy asarlar ham yaratildi va bu jarayon hamon davom etmoqda.

Ushbu maqolada tadqiqot markaziga olingan ikki asar ham "Boburnoma"da tasvirlangan tarixiy ma'lumotlarga tayanganligi, badiiyati, mualliflar uslubi, madaniy jihatdan o'ziga xos hayot lavhalarini tasvirlashi va albatta, mualliflarning Bobur shaxsiga bo'lgan yuksak hurmati bilan diqqatga sazovordir. "Boburnoma" ana shu ikki asar uchun birlamchi manba vazifasini bajaradi va ikki xalq: o'zbek va ingliz kitobxonlari qalbiga Bobur shaxsiga bo'lgan mehr va hurmat tuyg'ularini birdek olib kiradi. O'zbek adabiyotida ilk bor 1978-yili Pirimqul Qodirov tomonidan Bobur hayot yo'liga bag'ishlangan "Yulduzli tunlar" romani yozilgan bo'lsa, ingliz adabiyotida Annie Flora Still va Harold Lambdan keyin, 2009-yili Aleks Rutserford ham shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning shonli hayot yo'lini qiziqarli tarzda tasvirlab bergan "Shimoldan kelgan fothalar" romanini yaratadi. Ushbu maqola "Boburnoma" matniga asosiy manba sifatida tayangan holda zikr etilgan ikki asarni o'zaro qiyoslash, badiiy tahlil qilish va xalqlar, adabiyotlar va madaniyatlar o'rtasidagi farqli jihatlarni aniqlashni o'z jldiga birlamchi vazifa sifatida belgilagan.

Bobur ushbu asarni farzandlari uchun pandnoma sifatida yoza boshlagan payti uning asosiy maqsadi — hayoti davomida sodir bo'lgan "rost voqealarni" [Boburnoma: 238] bayon qilish, neki sodir bo'lgan bo'lsa, o'zgartirmasdan, kamaytirmasdan, ko'paytirmasdan kelajak avlodlariga yetkazish edi. Shu maqsadda asarini umrining oxirgi damlarida bir necha nusxada ko'paytirib, Xuroson va Movarounnahrda o'ziga qalban yaqin bo'lgan shoir-u fozillarga jo'natilishini xohlaydi. Keyinchalik uning nabirasi Akbarshoh uni fors tiliga tarjima qildiradi. Shu tarzda "Boburnoma"ning bir necha nusxalari va tarjimalari paydo bo'ladi. Hozirgacha uning ko'plab nusxalari fanga ma'lum va ulardan eng mashhur va ishonchililari sifatida N. Ilminskiy nashriga asos bo'lgan G. Y.Kerr nusxasi va Haydarobod nusxasi tan olinadi. 1714–1725-yillar oralig'ida Buxorodan topilib, Sankt-Peterburgga olib ketilgan ushbu manba G.Y.Kerr nusxasi [Olimjonov 2023] asosida 1857-yili tayyorlangan N. Ilminskiy nashriga hamda o'zbek olimlari tomonidan bajarilgan ilmiy tadqiqotlar va adabiy asarlarga manba vazifasini bajargan. Aynan mana shu nusxani ingliz olimasi A. Beverij 1905-yili faksimil holida nashr ettiradi va u fanda Haydarobod nusxasi nomi bilan mashhur. Keyinchalik ushbu nusxa ingliz olimlari tomonidan yaratilgan tarjimalar va badiiy asarlarga asos vazifasini

bajaradi. Lekin Bobur ijodini o'rganishni A. Beverijdan oldin Jon Leyden boshlab bergan edi. U Hindistonga 1803-yili shifokor sifatida keladi va tasodifan "Boburnoma"ning o'zbekcha matni bilan tanishib, uning birinchi qismini umrining oxirigacha ingliz tiliga tarjima qiladi. Ushbu ishni uning zamondoshi Uilyam Erskin davom ettirib, "Boburnoma"ning forscha matni asosida tarjimani yakunlaydi. 1821-yil ikki jildda chop etilgan ushbu tarjima "Leyden-Erskin" tarjimasi nomi bilan taniladi. Undan so'ng A. Beverij [1921] hamda V. M. Tekston [1996] "Boburnoma"ni yana ikki marta ingliz tiliga tarjima qilgan. Ushbu uch tarjima boburshunoslikda muhim o'ringa ega va ular bir-birini to'ldiradi, kamchiliklarni bartaraf etadi. Ingliz hukumatining Hindiston ijtimoiy hayoti, madaniyati va tarixiga qiziqishi natijasida ko'plab olimlar Hindiston tarixini, shuningdek, boburiylar tarixini ham chuqur o'rganadilar. J. Leyden, U. Erskin, A. Beverij, V. M. Tekston, F. Dale Bobur tarixini dunyoga mashhur qilgan bo'lsalar, A. F. Still, H. Lamb va A. Rutserford kabi yozuvchilar Bobur shaxsini dunyo kitobxoniga tanishtirdilar. Shu tariqa ingliz adabiyotida Bobur va uning sulolasi tarixini tasvirlovchi badiiy asarlar silsilasi paydo bo'ldi.

### **"Boburnoma"da muallif uslubi**

"Boburnoma" — tili ravon, jumalari sodda, tarixiy voqeahodisalarni real tarzda ifodalagan tarixiy-badiiy asardir. Yozuvchi asarni Farg'ona viloyati va uning atrofidagi tumanlar tasviri bilan boshlaydi va voqealarni otasi Umarshayx mirzo o'limi tafsilotlari bilan rivojlantiradi. "Boburnoma"ni yozishda muallif, asosan, oson va tushunarli jumalardan foydalanishga harakat qiladi va bunda "Temur tuzuklari"ni o'ziga namuna qilib oladi. Chunki Boburning o'zi o'g'li Humoyunga yozgan maktubida ta'kidlashicha, serdabdaba so'zlar ham o'qig'uchiga, ham maktub yozg'uvchiga qiyinchilik tug'diradi va ko'p vaqt talab qiladigan ishdir ["Boburnoma", 2023]. Bobur shoir bo'lishi bilan birga podshoh ham edi. Uning buyuk imperiya tuzish orzusi bir lahza bo'lsa ham unga bir makonda muqim turish imkonini bermas edi. Bobur doimo ot ustida, lashkar boshida, yurishlarda bo'lishga majbur edi. Shu sababli unda jimjimador so'zlarni o'ylab topishga yetarli vaqt bo'lmasdi. Bundan tashqari, maqtovg'a to'la asarlar, odatda, hukmdorlarga atab yozilar edi, Bobur o'zi podshoh bo'lganidan keyin bunday maqtovlarga o'rin qolmaydi [Qodirov 1978]. Asar chig'atoy turkiysida yozilgan bo'lib, o'sha davrda Andijon aholisi tili bilan bir xil edi. Bobur turkiy tilga ta'rif berar ekan, ushbu tilning Turkiston aholisi uchun adabiy til vazifasini bajarishi, uzoq Hirot shahrida yashab ijod qilgan Alisher Navoiy ham ushbu tilni o'ziga ona tili deb bilishini, o'zining ko'plab buyuk asarlarini, hattoki "Xamsa"sini ham mana shu tilda yozganini ta'kidlaydi.

Ushbu ikki asar ikki dunyo, ikki madaniyat vakillarining bir inson xususidagi fikrlari hosilasidir. Ularning ezgu dunyoqarashlari bir davr, bir sulola ustida birlashadi. Ushbu yozuvchilarning o'xshash jihatlaridan yana biri — har ikki yozuvchi ham "Boburnoma" hamda keyinchalik Boburning qizi Gulbadanbegim tomonidan yozilgan "Humoyunnoma" asarlariga tayangan holda Boburiylar sulolasi tarixini yorituvchi romanlar to'plamini yaratganliklaridir. O'zbek adabiyotida Pirimqul Qodirovning

“Avlodlar dovoni” nomi bilan mashhur dilogiyasi o‘z ichiga “Yulduzli tunlar”, “Humoyun va Akbar” hamda “Shohruh va Gavharshodbegim” romanlarini oladi. Aleks Rutserford esa “Mo‘g‘ullar imperiyasi” nomli olti kitobdan iborat butun bir jamlanma yaratadi. Bular: “Shimoldan kelgan fotihlar”, “Aka-ukalar urushi”, “Dunyo hukmdori”, “Bulg‘angan taxt”, “Ilon tishi” va “Soyadagi sotqinlar” dir. Lekin yozuvchilarning uslubi, syujet rivoji, asarlar kompozitsiyasi bir-biridan qisman farq qiladi. Misol uchun, yuqorida ta’kidlanganidek, “Boburnoma” Farg‘ona viloyati ta’rifi hamda Umarshayx mirzoning o‘limi tasviri bilan boshlanadi. Ushbu ma’lumotga tayangan holda Pirimqul Qodirov asar tarkibiga qoliplovchi obraz va voqealar qo‘shib, tarixiy jarayonni ijtimoiy voqealar tasviri bilan boyitadi, ya’ni “Yulduzli tunlar” Tohir va Robiyaning Farg‘ona vodiysida bo‘lib turgan urushlar haqidagi suhbatini bilan boshlanadi. Bobur mirzo bergan ma’lumotga ko‘ra, Sulton Ahmad mirzo askarlari qulab tushgan Quva ko‘prigi o‘z-o‘zidan og‘ir yukni ko‘tara olmay sinib ketadi. P.Qodirov tavsirida bu jarayonga mahalliy yigitlarning podshohlardan umid qolmagani sabab o‘zlari yovni daf etishga urinib, ko‘prikni arralab qo‘yishlari [Qodirov 1978] bilan bog‘lanadi. A. Rutserford esa bu voqeani tushirib qoldiradi va Ahmad mirzoning o‘limini Shayboniyxonning kutilmagan hujumi orqali yoritadi [Rutserford 2009].

Asarlar o‘rtasidagi birinchi farq yozuvchi uslubida ko‘zga tashlanadi. Pirimqul Qodirov sharq davlatchiligi, madaniyati, urf-odatlarini bilan bevosita tanish inson sifatida Boburni nafaqat jahongashta shoh yoki sarkarda, balki nozikta’b shoir sifatida gavdalanitiradi. Asosiy e’tiborni uning qalbida kechgan his-tuyg‘ular, g‘am-alamlar bilan o‘quvchini tanishtirishga, Bobur ham barcha insonlar kabi bolalikdan zavqlanishni xohlashini, oilasini ardoqlashini, vataniga bo‘lgan cheksiz muhabbatini tarannum etishga qaratgan. Rutserfordning Boburi esa ko‘proq jahongashta qirol, sarguzashtni sevuvchi, dushmanlaridan qasos olishga tayyor sarkarda, shu bilan birga yaxshilikni also unutmaydigan do‘st, yaqinlariga mehribon inson sifatida gavdalanadi. Ushbu jihat asar tarkibiy mazmuniga ta’sir qiladi, ya’ni “Yulduzli tunlar”da xuddi “Boburnoma”dagidek — muayyan vaziyatlarga mos tarzda keltirilgan baytlar, Bobur g‘azallaridan parchalar voqealar rivojiga aralashgan holda keltiriladi, Bobur mirzo shoirtabiat shoh sifatida gavdalanadi. Hatto uning Alisher Navoiyga bo‘lgan munosabati ham Bobur mirzoning samimiy bolalik sofliqi, Navoiy suratiga qarab xayol surishi, Navoiyning Farhodi kabi qahramon bo‘lishni orzu qilishi kabi syujetlar orqali tasvirlanadi. Rutserford esa Boburning qiyinchiliklarga to‘la hayoti, ko‘plab sargardonliklarga qaramasdan uzoq o‘lkalardan Hindiston hududiga kelib ulkan imperiyaga asos solganligiga ko‘proq e’tibor beradi va bunda Boburning shoirtabiat xarakteri namoyon bo‘lmaydi. Xuddi shu kabi farqli jihatlar — Sharq va G‘arb kitobxonlarining Bobur haqidagi munosabatlarini belgilab beradi.

### Asarlar kompozitsiyasi

“Yulduzli tunlar” tuzilish jihatidan ikki qism, yigirma bobdan iborat bo‘lib, bob nomlarining barchasi Bobur hayotining tasvirlanayotgan vaqtida muhim rol o‘ynayotgan hudud nomlari bilan atalgan. Joy nomlaridan so‘ng bob mazmunini ifodalaydigan sarlavhalar ham ilova

qilingan. Rutserfordning asari esa uch bo'lim, yigirma yetti bobdan iborat. Taqqoslanayotgan har ikki asar kompozitsiyasi markazida Bobur obrazi va uning davlatchilik faoliyati turadi, shu bilan birga o'sha davr fojialarini ifodalash uchun qoliplovchi obraz va voqelar tasviridan ham foydalanilgan. Misol uchun, podshohlarning o'zaro urushlari mahalliy aholi hayotiga qanchalik fojialarni olib kelishi "Yulduzli tunlar"da Robiya va chakraklar misolida, "Shimoldan kelgan fothihlar"da esa Boburiyning bolaligi misolida o'quvchi qalbiga yetkazib berilgan. Shuningdek, P. Qodirov Boburning ma'rifatparvarligi va binokorligini uning shoir Binoyi, tarixchi Xondamir, me'mor mavlono Fazliddinlar bilan bo'lgan munosabati, muloqoti vositasida ifodalaydi. Rutserfordning "Bobur"ida esa bunday jihatlardan ko'ra ajdodlarining buyuk maqsadlari ortidan ergashish, ularga munosib avlod bo'lishga intilish ko'proq ko'zga tashlanadi.

Asarlar tarkibida tarixiy ma'lumotlar qamrovi ham bir-biridan farq qiladi. "Boburnoma"da nafaqat Bobur, balki o'sha davrda yashab o'tgan ko'plab tarixiy shaxslarning biografiyasi, ular haqidagi qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, Husayn Boyqaroning katta o'g'li Badiuzzamon mirzoning qo'lga olinishi tasvirida Bobur quyidagi ma'lumotni keltiradi. Yozilishicha, Badiuzzamon otasiga isyon qilgani uchun Husayn Boyqaro unga qarshi yurish qiladi. Uning ikkinchi o'g'li Muzaffar mirzo esa xuddi shu vaqtda Badiuzzamon mirzoning o'g'li Muhammad Mo'min mirzo ustiga qo'shin tortadi. Qiziq jihati Badiuzzamon mirzo ham, o'g'li ham chorshanba kuni mag'lub bo'ladi va Muhammad Mo'min mirzoni Chorshanbi ismli navkar tutib keladi. Xuddi shu kabi ma'lumotlar "Boburnoma"da ko'plab uchraydi. Bu Boburning qiziquvchanligini, har bir voqea-hodisaning sabab va oqibatiga e'tibor berishini ko'rsatib beradi. Lekin ikkala badiiy asarda bu kabi ma'lumotlar deyarli keltirilmagan. Ushbu detallar yozuvchilar tomonidan asar hajmi va maqsadiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi uchun tushirib qoldirilgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Chunki asardan asosiy maqsad Bobur hayoti va shaxsiyatini ochib berish ekan, "yozuvchi o'z g'oyaviy-estetik niyatiga xizmat qilmaydigan birona tasvirni, birona tafsilotni, birona detalni, birona so'zni kiritmaydi" [Umurov 2004].

Pirimqul Qodirov asar kompozitsiyasiga Shayboniyxon va uning atrofida bo'lib o'tgan voqea-hodisalarni kiritadiki, o'quvchida bu tarixiy shaxs va davr haqida muayyan tushuncha paydo bo'ladi. Bundan ko'rinadiki, yozuvchi nafaqat "Boburnoma" matni bilan, balki o'rta asrlardagi O'rta Osiyo tarixi, shuningdek, o'sha davrda yaratilgan boshqa tarixiy manbalar bilan ham tanish bo'lgan. Bunday imkoniyatga ega bo'lmagan Rutserford asarida Boburning bergan ma'lumotlardan chetga chiqilmagan, boshqa jihatlar yoritilmagan. "Yulduzli tunlar" tarkibida Bobur o'zi yozgan she'rlarini vaziyatlarga mos holda berilishi ham uning "Boburnoma"ga yaqinlashtiradigan jihatlaridan biridir. Ushbu asarni o'qigan kitobxonda Bobur shaxsiyatidagi shoirtabiatlik, binokorlik, ma'rifatparvarlik kabi xislatlarga nisbatan xayrixohlik paydo bo'ladi. Rutserfordning "Bobur"ida esa ko'proq sarkardalik, fothilik, sodiqlik va jo'shqinlik xislatlari namoyon bo'ladi.

### Asarlarda voqealar rivojining asliyat matni — “Boburnoma” bilan bog‘lanishi

“Boburnoma”da keltirilishicha, Umarshayx mirzoning yomon muomalasidan bezor bo‘lgan akasi — Samarqand hukmdori Sulton Ahmad mirzo Farg‘ona ustiga qo‘shin tortadi. Ana shu urush arafasida Umarshayx mirzo vafot etadi. Yosh hukmdor Boburni Andijon beklari uyushgan holda qo‘llab-quvvatlaydilar va qal‘a mudofaasiga qattiq kirishadilar. Lekin amakisining qudratli qo‘shinga egaligini bilgan Bobur va uning atrofidaqilar sulh tuzishni va Sulton Ahmad mirzoga bo‘ysunishga roziliklarini bildirib elchi jo‘natadilar. Ammo Farg‘onaga katta o‘lja undirish maqsadida kelgan beklar bunga rozi bo‘lishmaydi va hujum davom etadi. Natijada Samarqand qo‘shini Quva ko‘prigidan qulab, katta shikast topadi, buning natijasida Bobur bilan yengil-yelpi sulh tuzib ortga qaytib ketadi. Samarqandga qaytib ketayotgan Ahmad mirzo yo‘lda vafot etadi va Samarqand taxti uning boshqa ukasi Sulton Mahmud mirzoga nasib etadi. Tarixan temuriylar oilasidagi o‘zaro munosabatlardan yaxshiroq xabardor bo‘lgan P. Qodirov Boburning o‘z amakisiga vassal sifatida mamlakatni boshqarmoqchi bo‘lganini tushunadi va voqealar tafsilini “Boburnoma”dagi kabi keltiradi. Biroq Rutserfordning “Bobur”i amakisiga qaram bo‘lishni xohlamaydi va unga qarshi mardonavor jangga otlanadi. Hukmronligini ichki dushmanlarni bartaraf etish bilan boshlagan “g‘arblik” Bobur atrofidaqilar beklarini ham mardonavor bo‘lishga chaqiradi, hatto jang uchun oldindan tayyorlab qo‘ygan hujum rejasini e‘lon qiladi. Bu orqali uni qiyin vaziyatga solib, Samarqand hukmdori bilan kelishishga majburlamoqchi bo‘lgan Ahmad Tanbalga u yerda kim hukmdor ekanligini ko‘rsatib qo‘yadi. Bundan tashqari Bobur va uning amakisi Sulton Ahmad mirzoning o‘zaro munosabatlari ham yaxshi emasligi, Sulton Ahmad mirzo ukasi Umarshayx mirzoni ham nazariga ilmagan, Farg‘onani juda kichik va arimas hudud deb hisoblashi uning Boburga jo‘natgan xatida namoyon bo‘ladi. Xatda yozilishicha, Umarshayx mirzo temuriylar xonadoni dushmanlari o‘zaro to‘planayotgan bir davrda Farg‘onani kuchsiz va chorasiz yosh bolaga, Boburga qoldirib ketgan, shuning uchun ularni himoya qilish uchun Ahmad mirzoning o‘zi yo‘lga tushgan, vaqti kelganida esa Bobur yashashi uchun kichikroq bir joyni tayin etadi. Bu jummalarni haqorat deb bilgan Bobur Farg‘onaning qanday kuchga ega ekanini isbotlash uchun to‘rt ming kishilik qo‘shin to‘plab, janggi otlanadi. Ya‘ni, Rutserfordning “Bobur”i qaramlikka, qullikka rozi bo‘lmaydi, agar mag‘lub bo‘lsa ham, ozod holda o‘lishni afzal biladi. Amakisining tasodifiy o‘limidan so‘ng o‘zini uning haqiqiy merosxo‘ri sifatida bilib, Samarqand taxtiga da‘vo qiladi. Asil manbada esa, Sulton Ahmad mirzo vafotidan taxminan bir yildan so‘ng, boshqa amakisining o‘g‘li Boysunqur mirzodan Samarqandni tortib olishga harakat qiladi [Rutserford 2009].

Boburning tog‘asi Toshkent hukmdori Mahmudxon bilan munosabati ham e‘tiborga molik masala hisoblanadi. Sulton Ahmad mirzo Farg‘onaga hujum qilganida, Sirdaryoning shimol tomonidan Sulton Mahmudxon bostirib kelayotgan edi. Xon Axsi yaqiniga kelib, bir necha marta urush qilib, hech ish chiqara olmaydi va xastalanib qaytib ketadi. Ushbu hodisa ta‘rifi ikkala romanda ham uchramaydi. “Shimoldan kelgan

fotihlar” asarida Mahmudxon haqida umuman ma’lumot keltirilmagan. Garchi P.Qodirov “Yulduzli tunlar”ga xonga bog‘liq syujetlarni kiritgan bo‘lsa-da, bularda Sulton Mahmudxon, qo‘rqq, xiyonatkor va mulohazasiz hukmdor sifatida ta’riflanadi. Asarda keltirilishicha, ikkinchi marotaba Samarqanddan ayrilgan Bobur Toshkentga, xon tog‘asining oldiga Shayboniynxonga qarshi ittifoq tuzish uchun boradi. Tog‘asi esa unga sovuq muomala qilib, Shayboniynxon elchisi bilan shatranj o‘ynash uchun uni eshik tagida kuttirib qo‘yadi va Boburning askarlari kamligi ustidan kulib, kamsitadi. Bundan bezor bo‘lgan Bobur Toshkentni tashlab chiqib ketadi. Shuningdek, Shayboniynxonning kuchayib ketib, temuriylar hududiga bostirib kirishiga aynan Mahmudxon bergan ko‘mak sabab bo‘lgani keltiriladi. Chunki Mahmudxon ham xuddi Shayboniynxon kabi Chingizxon avlodidan tarqagan xonlardan biri edi. U Shayboniynxonga yordam berish orqali chingiziylarning avvalgi hukmronligi tiklanishiga umid qiladi. Lekin “Boburnoma”da keltirilishicha, Bobur va tog‘asi Mahmudxon o‘rtasida bo‘lib o‘tgan dastlabki sovuq munosabatga qaramay, 1502–1503-yillar oralig‘ida ular birgalikda Ahmad Tanbal qo‘shinlariga hujum qilishadi va Andijonni egallashga harakat qiladilar. Bundan anglashiladiki, P. Qodirov “Boburnoma”da keltirilgan tog‘a va jiyan o‘rtasidagi avvalgi va keyingi aloqalar va voqea-hodisalarni hisobga olgan holda Mahmudxonga yuqoridagi ta’riflarni beradi va ularning ittifoqi manzarasini o‘z asarida tushirib qoldiradi.

Rutserfordning g‘oyasiga ko‘ra, Shayboniynxon Samarqand hukmdori o‘zbek qabilalariga qilgan hujumi paytida asir qilib Samarqandga olib kelingan va temirchi ustaxonasida jon saqlagan, keyinchalik bir samarqandlik boy uni o‘qitib, o‘ziga kotib qilib ishga oladi. Ana shu boy uyida ko‘rgan azoblari hamda temuriylarning otasi va akasini o‘ldirib, o‘zini qul qilganlari unda temuriylarga nisbatan cheksiz dushmanlikni vujudga keltiradi. Keyinchalik Shayboniynxon boy uyidan qochib ketadi va o‘z qabilasiga qaytib, u yerda qo‘shin to‘plab qaytib keladi. Ushbu ma’lumotlarning ildizi “Boburnoma”da quyidagicha tasvirlanadi. Unga ko‘ra, Shayboniynxon P. Qodirov ta’riflaganidek, chingiziylarga mansub xonlardan bo‘ladi, lekin uning kuchayib ketishiga nafaqat Mahmudxon, balki samarqandlik beklardan Abdulali tarxon sababchi bo‘ladi. Abdulali tarxon qo‘lida navkar bo‘lgan Shayboniynxon uning ko‘magi bilan Turkistonda mo‘g‘ullar xoni darajasiga ko‘tariladi va Movarounnahrda temuriylar sulolasining tugatilishiga sababchi bo‘ladi.

Keyingi farq Jahongir mirzo va uning taqdiri misolida ko‘zga tashlanadi. Boburning xotiralariga ko‘ra, ukasi Jahongir mirzo bilan ko‘plab ziddiyatlarga borgan bo‘lishiga qaramay, keyinchalik aka-ukalar birlashib, bir muncha vaqt Kobulda birga yashaydilar. Lekin “Boburnoma”da Jahongir mirzoning qachon, qayerda va qanday holatda vafot etgani haqida aniq ma’lumot keltirilmagan. Biroq qaydlardan ma’lum bo‘ladiki, Jahongir mirzo taxminan 1509–1518-yillar oralig‘ida vafot etgan bo‘lishi kerak. Bu davr xotiraları qayd etilgan qismlar turli sabablarga ko‘ra “Boburnoma”da aks etmagan. “Yulduzli tunlar”da ham yozuvchi Jahongir mirzoning o‘lim sahnasini tushirib qoldiradi, go‘yoki Bobur ikkinchi marta Samarqandni egallaganidan keyin Jahongir mirzo tarix sahnasidan tushib qoladi. Uning o‘rniga Boburning Andijondagi dushmani sifatida Ahmad tanbal gavdalanadi. Asliyatda ham Bobur

ikkinchi marta Andijon uchun ukasi Jahongir mirzo bilan emas, balki aka-ukalar: Bobur mirzo, Jahongir mirzo va Nosir mirzolar birlashib Ahmad Tanbalga qarshi kurashadilar. Lekin mag'lubiyatga uchraydilar va Kobulda hokimiyat o'rnatadilar [Boburnoma]. Lekin P. Qodirov Jahongir mirzo hayotining bu qismiga to'xtalib o'tmaydi. Aleks Rutserford esa Jahongir mirzo va Ahmad Tanbal fojiasini to'liq tasvirlaydi, ya'ni Shayboniyxon Andijonga hujum qiladi va ikkalasini ham hiyla bilan qo'lga tushirib, o'ldirib yuboradi.

Movarounnahrda butunlay umidi uzilgan Bobur podshohning Hindiston sari yurish boshlashi taqqoslanayotgan ikki badiiy asarda turlicha tasvirlangan. "Boburnoma"da keltirilishicha, Toshkentga xon huzuriga borishidan oldin oila a'zolarini O'ratepaning Dahkat nomli qishlog'iga joylashtiradi. Ana shu asnoda ushbu qishloqda yashovchi bir yuz o'n bir yoshli qari ayol bilan tanishadi va u Boburga Amir Temur bilan Hindiston urushida qatnashgan bobosi haqida hikoya qilib beradi. Ana shu ma'lumot "Shimoldan kelgan fothihlar" romaniga "Oltin filchali qari ayol" bobi tarkibida keltiriladi. Asarda yozilishicha, Rehana ismli bu qari ayolning Toriq ismli bobosi Amir Temur qo'shini tarkibida otliq kamonchi sifatida Hindiston yurishida qatnashadi va hindistonlik kichkina bir bolakayga rahm qilgani uchun quyma oltindan yasalgan fil haykalchasiga ega bo'ladi. Bu haykal qo'ldan-qo'lga o'tib, Rehanaga meros bo'lib qoladi. Bobur Rehana tilidan o'zining katta bobosi Temur haqida iliq fikrlarni eshitar ekan, xuddi ana shu janglarni o'z ko'zi bilan ko'rgandek tasavvur qiladi va unda ham bir kun kelib Hindistonga yurish qilish istagi paydo bo'ladi. Ushbu voqealar tasvirida Bobur hayotining keyingi qismida sodir bo'lgan voqea bilan o'xshash tasvir keltirilgan. Ya'ni tarixan Hindiston yurishida Bobur dushmanning minglab fillariga qarshi bir-biriga ulangan aravalar va ular orasidagi olovli kamonlardan foydalanadi. Rehana aytgan hikoyalarda tasvirlanishicha, Amir Temur ham bunday ulkan fillarga qarshi orqasiga qurigan o'tin va hashaklar bog'langan tuyalardan foydalanadi, ya'ni tuyalar orqasidagi hashaklarga o't qo'yib, ularni fillarga tomon haydab yuboradilar. Olovdan tahlikaga tushgan fillar ortga qaytib, orqasidagi Hindiston qo'shinini yakson qiladi. "Boburnoma"da esa Amir Temur Hindiston urushida qanday usullardan foydalangani haqida ma'lumotlar keltirilmagan. Bundan ko'rinadiki, Rutserford Bobur o'zi keltirgan ma'lumotlardan ruhlangan holda, undagi ajdodlariga bo'lgan hurmatni, ularning izidan borish g'oyasini ilgari surish maqsadida ushbu epizodlarni o'z asariga qo'shgan. P. Qodirov esa Dahkat qishlog'i bilan boshqa voqeani bog'laydi va Boburning shoirligiga urg'u beradi. Romandagi ta'rifga ko'ra, Dahkat tog'larida yalangoyoq kezib yurgan Bobur bir kuni bir cho'pon yigit bilan tanishib qoladi. Suhbatlari Bobur podshoh mavzusiga o'tganida Boburni tanimagan cho'pon yigit unga nisbatan alami borligini, agar shohni yolg'iz uchratsa, otasi va akasi xunini olmoqchi ekanini aytadi. Bu yigit bir necha yil oldin mol undirish maqsadida boshi kesilgan tog'lik chakrak qabilasidan edi. Bobur o'zini tanishtirganidan so'ng cho'pon yigit undan qasd olishni xohlamaydi va shoir bo'lgani uchun kechirishini aytib, yo'lga ravona bo'ladi. Bu epizod orqali yozuvchi Boburning qanchalik ruhiy tushkunlikda bo'lganini, uni mamlakat aholisi nafaqat shohligini, balki shoirligini ham hurmat qilishini ko'rsatib bergan.

Bundan tashqari, Boburning Hindistonga uyushtirgan hujumlari maqsadi va qurol-yarog'lar tasvirida ham har xillikni kuzatish mumkin. Bobur o'z qaydlarida Hindiston azaldan temuriy podshohlar tomonidan boshqarib kelinganini, keyinchalik nazorat susayib, boshqa hukmdorlar qo'liga o'tib ketganini yozadi. Uning tunganmas boyliklariga ega bo'lishdan tashqari, ana shu otameros hududlarni qaytarib olish da'vosi bilan Hindiston sari yurishga otlanadi. Mana shu motiv Rutserford asarida ham saqlangan bo'lib, uni bu yurishga ruhlantirgan jihat do'sti Boburiy Turkiyadan olib kelgan miltiqlar va zambaraklar edi. Ushbu qurol turi Boburning dushmanlaridan hech birida yo'q edi va hindistonliklar ham bunday ustunlikka ega emas edilar. Bobur mana shu jang qurollari bilan Hindistonni oz qo'shini bilan ham yenga olishiga ishonadi va dadil janggi kirishadi. "Yulduzli tunlar"da esa bu motiv Hindiston ahliga tinchlikni sog'inish, o'zaro urushlar natijasida parokanda bo'lgan yurti birlashtirish g'oyasi bilan almashinadi. Asarda yozilishicha, Boburni shunchaki talonchi emas, balki Hindistonda tinchlik o'rnatadigan haqiqiy ma'rifatli shoh sifatida tan olgan bir necha hind beklari ham unga qo'shilib, mamlakatni egallashiga yordam beradilar. Shuningdek, ushbu yurishda qo'llanilgan miltiqlar Ismoil Safaviy bilan o'rnatilgan ittifoqning natijasi sifatida tasvirlanadi. Biroq "Boburnoma"da miltiqlar qayerdan kelgani haqida ma'lumot keltirilmagan.

Ko'hinur olmosi motivi ham ushbu ikki asarda turlicha tasvirlarni uchratish mumkin. Bobur asarida bu olmosga ko'p to'xtalmaydi, roja Bikramajitning oilasini talanishdan qutqarib qolgani uchun Humoyun mirzoga hadya etilganini, Humoyun esa uni otasiga sovg'a qilgani, biroq Bobur uni o'g'liga qaytarib berganini yozadi. O'sha davr qiymat belgilovchilarining fikriga ko'ra, bu olmos o'sha paytda butun dunyoning ikki yarim kunlik sarf-xarajatiga teng, deb baholanadi. "Shimoldan kelgan fothilar" asarida tasvirlanishicha, Humoyun Gvaliyor rojasining onasi, xotini va olti oylik o'g'lining hayotini saqlab qolgani uchun ushbu olmos bilan taqdirlanadi. Podshohga sovg'a qilinganidan so'ng, bir qancha vaqt Boburda saqlanadi. "Yulduzli tunlar"da esa Humoyun singlisining nomusi uchun jang qilgan Gvaliyor rojasining o'g'lining hayotini saqlab qoladi va podshohning "Hindiston aholisi talanmasin", deb bergan farmoniga bo'ysunmay, rojaning boyligi va qizining nomusiga ko'z olaytirgan o'z begi Vaysbekni jazolatadi. Bu o'rinda Humoyun shunchaki buyruq berish qudratiga ega shahzoda sifatida emas, balki adolatparvar va mard yigit tarzida gavdalanadi.

### **Xarakterlar rivojidagi badiiy transformatsiya**

Bobur tarixiy shaxslarni ta'riflashda ham o'ziga xos yo'nalishga ega tarixchi hamda yozuvchi muallifdir. U o'z davrining qoliplaridan chiqib keta olgan va faqatgina o'ziga xos tarzda kishilarga ta'rif bergan. "Boburnoma"da tarixiy shaxslar ta'rifini keltirar ekan, dastlabki qaydlari umrining dastlabki qismlarida yozilgani sababli bolalarga xos samimiyat bilan, insonlarning hammaga ayon bo'lgan xislatlarini, keyinchalik ular bilan yaqindan tanishganidan so'ng, ularning ichki dunyolarini ham ochiq oydin ta'riflagan. Jumladan, Umarshayx mirzoning beklaridan Hasan Ya'qubbekka quyidagicha ta'rif beradi: "...bolatabiat, iste'dodli, chechan

*va samimiy kishi edi. ... O'qni yaxshi otardi, chavgonni yaxshi o'ynardi. Tuproqpallani yaxshi sachratar edi. Umarshayx mirzoning vafotidan so'ng u mening eshigimda eshikog'a bo'ldi. Ichi tor, kamhafsala, fitnaroq kishi edi*" ["Boburnoma", 44]. Yuqorida keltirilgan ta'riflardan seziladiki, "tuproqpalla", "chavgon" haqidagi jumlar Boburning bola yuragidan chiqqan fikrlar edi. Lekin keyinchalik davlat ishlarida Boburga pand bergani uning haqiqiy yuzini ochadi va yuqoridagi jumlar bitiladi. Bobur ta'riflaridagi yana bir jihat shundaki, u biror kishiga ta'rif berar ekan, uning faqatgina yaxshi yoki yomon jihatlarini emas, balki qanday bo'lsa, shundayligicha ta'riflaydi. O'zi ana shu insonga bo'lgan munosabatidan qat'iy nazar, xolis ko'z bilan qaraydi. Hattoki, o'zining ashaddiy dushmani bo'lgan shaxslarga nisbatan keltirilgan iliq fikrlarni o'qish mumkin. Misol uchun, Shayboniyxon, Sulton Ali mirzo, Boysung'ur mirzo, Ahmad Tanbal kabilar ta'rifida ular qilgan yaxshi ishlar tafsiloti ham bayon qilingan. Asarlari tahlil qilinayotgan ikki asar muallifining qahramonlari ham rang-barang xarakterlarga ega. Jumladan, "Yulduzli tunlar"da Shayboniyxon makkor, ikkiyuzlamachi hukmdor sifatida ta'riflansa-da, ayrim o'rinlarda axloqli musulmon, maqsadiga erishish uchun jon kuydirib mehnat qiladigan sarkarda sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, "Boburnoma"da keltirilgan Qosimbek qavchin obrazi asarlarda turlicha o'zgarishlarga uchraganini kuzatish mumkin. Ushbu obraz "Shimoldan kelgan fotihlar"da transformatsiyaga uchragan bo'lib, uning ismi Boburning tashqi ishlar vaziri roliga, hayoti, xarakteri va qilgan ishlari Vazirxon ismli Boburning bekotasi roliga ko'chib o'tgan. "Boburnoma"da: "...Yana bir Qosimbek qavchin edi. Andijonning qadimiy qo'shin beklaridan, umri oxirigacha e'tibori ortsa ortdi, kamaymadi. Mardona kishi edi. Turkman hazorasiga hujum qilganimizda keksaligiga qaramay, yigitlardan ko'ra yaxshiroq jang qildi. Zamini Dovarni olgan paytda Tangri rahmatiga bordi. Musulmon, diyonatli, taqvodor kishi edi. Savodsiz bo'lishiga qaramay, ziyraklik bilan lutflar qilar edi" ["Boburnoma", 44]. "Shimoldan kelgan fotihlar"da: „Qosim — Boburning siyosiy maslahatchisi, asosan, elchi, kamgap, yetim bo'lishiga qaramay, yaxshi ta'lim ko'rgan. Vazirxon — Umarshayx mirzoning ko'kaldoshi, Boburning ilk hukmronlik davrlaridagi maslahatchisi, ichki va tashqi dushmanlarga qarshi kurashda doimiy yordamchisi, sodiq bekota. Saripul jangida daryoga cho'kib, vafot etgan" [Rutserford, 2009]. Shuningdek, "Boburnoma"da Qosimbekning Qorabuloqda mahalliy aholiga talonchilik qilgan uch-to'rt mo'g'ulni parcha-parcha qildirish hodisasi ham Vazirxon obrazi orqali badiiy transformatsiyaga uchragan. Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinadiki, muallif asil manbaga tayangan holda o'quvchi uchun qiziqarli bo'lgan yangicha obrazlar tizimini yarata olgan. "Yulduzli tunlar"dagi Qosimbek ham tarixiy Qosim qavchinga juda yaqin va ishonarli qilib tasvirlangan.

Tarixiy Xonzoda begim obrazi esa "Yulduzli tunlar"da Boburning ma'rifati, obodonchilik yo'lidagi sa'y-harakatlarini ifoda etuvchi sodiq oila a'zosi sifatida, "Shimoldan kelgan fotihlar"da Boburni ona tomonidan Chingizxonga bog'lab turuvchi ayollar silsilasining davomchisi o'laroq gavdalantirilgan. Shuningdek, "Boburnoma"da keltirilgan Boburiy obrazi birinchi asarda Tohirbek obrazida, ikkinchi asarda esa Boburning bir

umrlik quroldosh do'sti, unga Turkiyadan o'qotar qurollar olib kelgan va Hindiston yurishiga undagan Boburiy obrazida gavdalanadi.

“Shimoldan kelgan fotihlar” romanida o'ziga xos xarakter va o'ringa ega bo'lgan obrazlardan biri — Boburning qaynotasi minglig' urug'ining sardori, Oysha begimning otasi Ibrohim Soru hisoblanadi. Ushbu asarda keltirilishicha, Ibrohim Soru qudratli beklardan biri hamda uning qo'l ostida ko'p minglik kamonchilar qo'shini bor va u hali kim tomonida jang qilishini hal qilmagan edi. Bobur qaynotasining yordami bilan Ahmad tanbalga qarshi kurashib, Andijonni qaytarib olishni rejalashtirgan edi. Rutserford o'z asariga nafaqat Ibrohim Soru kabi to'qima obrazlarni, balki “Boburnoma”da tarixiy haqiqatga ega bo'lmagan epizodlarni ham qo'shadi. Jumladan, Oysha begim va Bobur mirzoning to'y marosimlari, undagi udumlar, Oysha begimning Bobur mirzodan ikki yosh katta ekanligi va uning ushbu to'ydan oldin o'z qabilasidan bo'lgan boshqa yigitga unashtirilganligi kabilar yozuvchi tasavvurining mahsulidir. Lekin minglig' qabilasi, Ibrohim Soru kabi nomlar to'qima nomlar emas, ya'ni tarixan Oysha begim Samarqand podshohi Sulton Ahmad mirzoning qizi, Boburdan yosh jihatidan katta emas va Bobur uylangan payti Ahmad mirzo vafot etgan edi. Shuningdek, Ibrohim Soruyi minglig'bek Boburning barcha qiyinchiliklarida birga bo'lgan sadoqatli beklaridan bo'lib, u ham Saripul urushida halok bo'ladi.

### Xulosa

Yuqorida tahlilga tortilgan ikki badiiy asar bir-biridan kompozitsiyasi, xarakterlar rivoji, yaratilgan davri, joyi va badiiy xususiyatlariga ko'ra farqlansa-da, yozuvchilarning Bobur shaxsiga bo'lgan cheksiz ehtiromi, hurmati va tarixiy voqea-hodisalarni tasvirlashdagi yondashuvi kabi jihatlar ularni birlashtirib turadi. “Boburnoma” har ikki roman uchun birdek adabiy manba vazifasini o'taydi va badiiyati, so'z va tavsir ifodasi, keltirilgan ma'lumotlarning aniqligi sababli nafaqat o'zbek, balki ko'plab xalqlar adabiyotida yaratilgan va yaratilishi mumkin bo'lgan badiiy asarlarga “xamirturush” vazifasini bajarishi mumkin. Ushbu asarlar tahlili natijasi shuni ko'rsatadiki, ikkala asar muallifi ham o'rta asr Sharq adabiyoti va tarixini o'rgangan, Bobur kezgan yo'llarni bosib o'tgan, u haqidagi ko'plab ma'lumotlarni to'plab, ana shular asosida o'zbek va ingliz kitobxonlariga manzur bo'ladigan alohida-alohida san'at asarlarini yarat olganlar. Shuningdek, Pirmqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanining 2024-yili britaniyalik adabiyotshunos Kerol Yermakova tomonidan “Starry nights” nomi bilan ingliz tiliga o'gilishi [Baburid.uz] ingliz kitobxonlari va adabiyotshunoslarini o'zbek adabiyotidagi Bobur haqida yaratilgan asarlarga bo'lgan qiziqishini ko'rsatadi. Navbatdagi vazifa esa ingliz yozuvchisi Aleks Rutserfordning “Shimoldan kelgan fotihlar” (“Raiders from North”) asarini o'zbek tiliga tarjima qilish, deb o'ylaymiz.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, “Yulduzli tunlar” Bobur yashagan davrdagi Movarounnahr tarixini, temuriylar, shuningdek, Bobur tarixini o'ziga xos tarzda tasvirlagan, uning binokorlik, ma'rifatparvarlik, she'riyatga oshnolik, adolatlilik va xolislik kabi go'zal xislatlarini yoritgan tarixiy roman sifatida, “Shimoldan kelgan fotihlar” esa uning jangovarlik,

insonparvarlik va mardlik kabi jihatlarini tarannum etgan tarixiy-sarguzasht roman sifatida jahon adabiyotida o'ziga xos o'rin egallaydilar. Adabiy dunyoqarashdagi o'xshashlik, umumiy motivlar har ikkala millat vakillari orasidagi do'stlik, hamkorlik, o'zaro hurmat tuyg'ularini ifodalaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- “Bobur: Yulduzli tunlar” (Ingliz tiliga tarjima qilindi). — URL: <https://baburid.uz/news/15> (murojaat sanasi: 28.04.2025)
- Beveridge, A.S. (1921). *Baburnama in English*. — London: Luzac&Co. — 508 p.
- Bobur, Z.M. (2023) *Boburnoma*. V. Rahmonov & K. Mullaxo'jayeva tabdili. — Toshkent: O'zbekiston. — 464 b.
- Ilminskiy, N.M. (1857). *Babur Zahir-al-Din Muhammad. Baber-nameh Diagataice ad fidem codicis petropolitani*. Edited by Nikolai Ilminski. — Kazan: Qazan Universityetining Tabkhanasi. — 508 p.
- Ne'matova, H. (2023). “Boburnoma” — safarnoma janrida yaratilgan asarlarning eng sarasi // “Asrlar uzra porlagan siymo” maqolalar to'plami. — Andijon: Andijon nashriyot-matbaa uyi. — B. 257–260.
- Olimjonov, D. (2023). “Boburnoma” asari qo'lyozmalari // *Science Shine International Scientific Journal*, № 1(1).B. 4–7.
- Qodirov, P. (2019). *Yulduzli tunlar*. — Toshkent: Yangi asr avlodi. — 586 b.
- Rutherford, A. (2009). *Empire of the Moghul: raiders from the north*. — New York: St. Martin's Press. — 434 p.
- Thakston, V.M. (1996). *The Baburnama. Memoirs of Babur, prince and emperor*. — New York: Oxford University Press. — 311 p.
- Umurov, H. (2004). *Adabiyotshunoslik nazariyasi*. — Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. — 264 b.
- Wikipedia. *Empire of the Moghul*. (murojaat sanasi: 20.05.2025) [https://en.wikipedia.org/wiki/Empire\\_of\\_the\\_Moghul](https://en.wikipedia.org/wiki/Empire_of_the_Moghul)

### References

- Baburid.uz. (2025, April 28). “*Babur: Starry Nights*” has been translated into English. <https://baburid.uz/news/15>
- Babur, Z. M. (2023). *Boburnoma* (V. Rahmonov & K. Mullakhodjaeva, Eds. & Trans.). Tashkent: Uzbekistan.
- Beveridge, A. S. (Trans.). (1921). *Baburnama in English*. London: Luzac & Co.
- Ilminskiy, N. M. (Ed.). (1857). *Babur Zahir-al-Din Muhammad. Baber-nameh diagataice ad fidem codicis petropolitani*. Kazan: Qazan University's Printing House.
- Ne'matova, H. (2023). “*Boburnoma*” is the most comprehensive of the works created in the travelogue genre. Andijan: Andijan Publication House.
- Olimjonov, D. (2023). Manuscripts of the “*Baburnama*.” *Science Shine International Scientific Journal*, 1(1).

- Qodirov, P. (2019). *Starry nights*. Tashkent: New Generation Publishers.
- Rutherford, A. (2009). *Empire of the Moghul: Raiders from the North*. New York: St. Martin's Press.
- Thackston, V. M. (Trans.). (1996). *The Baburnama: Memoirs of Babur, Prince and Emperor*. New York: Oxford University Press.
- Umurov, H. (2004). *Literary theory*. Tashkent: A. Kodiriy Publication House of Folk Heritage.
- Wikipedia contributors. (2025, May 20). *Empire of the Moghul*. Wikipedia. [https://en.wikipedia.org/wiki/Empire\\_of\\_the\\_Moghul](https://en.wikipedia.org/wiki/Empire_of_the_Moghul)